

Buxoro davlat universiteti
Tabiiy fanlar va agrobiotexnologiya fakulteti
talabalari ishtrokida “Bahouddin Naqshband ziyoratgohi”- ziyoratgoh
majmuasiga tashrif.

BAYONNOMASI

Buxoro tuman

28.03.2025-yil

Rais: - I.R.Barakaev

Kotib – O.E.Djumayeva

Qatnashdi: **Hafizova.D, Djumayeva.O, Farmonav.N, Nasriyev.A va fakultet talabalar va magisrtlar Zaribboyev .M**

KUN TARTIBI:

1. “Bahouddin Naqshband ziyoratgohi”- ziyoratgoh majmuasiga sayohat.

ESHITILDI:

Bahouddin Naqshband ziyoratgohi – Buxoroda joylashgan, Naqshbandiya tariqatining asoschisi bo‘lgan Bahouddin Naqshband (1318–1389) qabrini o‘z ichiga olgan muqaddas ziyoratgohdir. Ushbu ziyoratgoh nafaqat O‘zbekistondagi, balki butun Markaziy Osiyodagi eng mashhur islomiy markazlardan biri hisoblanadi.

Ziyoratgoh tarixi va ahamiyati

Bahouddin Naqshband, tasavvufda sodda hayot kechirish, halol mehnat qilish va Allohni qalb bilan zikr etish tamoyillariga asoslangan Naqshbandiya tariqatining asoschilaridan biridir. Uning qabri asrlar davomida ziyorat markazi bo‘lib kelgan va u yerga butun dunyodan muridlar va ziyoratchilar kelib, ibodat qilishadi. XVI asrda Shayboniylar davrida bu yerda katta maqbara va xonaqoh qurilgan. Keyinchalik, Amir Temurning avlodlari va boshqa hukmdorlar tomonidan ziyoratgoh yanada kengaytirilgan. Bahouddin Naqshband majmuasi quyidagi qism va binolardan iborat:Qabr maqbarasi – Bahouddin Naqshbandning qabri asosiy ziyorat joyidir. Xonaqoh – Tariqat a'zolari uchun yig‘ilish va zikr qilish maskani.Masjidlar – Ziyoratchilar uchun ibodat qilinadigan joylar.Chorbog‘ – An'anaviy Markaziy Osiyo bog‘ tarzi asosida barpo etilgan.Ko‘shk va hovuzlar – Orasta hovuzlar va bog‘lar majmuaga husn bag‘ishlaydi.Bahouddin Naqshband ziyoratgohi O‘zbekiston musulmonlari va butun dunyodan kelgan sayyohlar uchun muqaddas hisoblanib, u yerga har yili minglab odamlar tashrif buyurishadi. Ayniqsa, Qurbon hayiti va Ramazon oyida bu yerda ko‘plab ziyoratchilar bo‘ladi.



28.03.2025y



14.01.2025y



Bayonlashtirdi:

Djumayeva O.E

**Tabiiy fanlar va agrobiotexnologiya fakulteti tyutori M.M.Avliyoqulovanning
biriktirilgan akademik guruhlardagi talabalar bilan Bahouddin Naqshband
ziyosatgohiga tashrif
BAYONNOMASI**

Buxoro shahri

14.03.2025

QATNASHDILAR: :Tabiiy fanlar va agrobiotexnologiya fakulteti tyutori
M.Avliyoqulova, 2.1 Kim-24 guruh talabalari.

ESHITILDI:14-mart kuni Tabiiy fanlar va agrobiotexnologiya fakulteti tyutori
M.Avliyoqulova tomonidan talabalar ishtirokida Bahouddin Naqshband
ziyosatgohiga tashrif buyurildi.

Bahouddin Naqshband yodgorlik majmuasi — shayx Bahouddin Naqshband mozori yonidagi hazira — ansambl (Buxoro viloyati, XVI asr). Buxoro viloyati Kogon tumani Qasri Orifon qishlog‘idagi me‘moriy yodgorlik. Ushbu me‘moriy yodgorlikka Buxoro xoni shayboniy Abdulazizxon tomonidan 1544-yilda asos solingan^[1]. Bahouddin majmuasi daxmalar (Daxmai shohon va Bahouddin daxmasi), maqbara, 2 masjid, saqoxona, hovuz, quduq, minora, madrasa va Abdulazizxon xonaqohidan iborat. Bahouddin Naqshband Buxorodagi yetti pirlarning yettinchi vakili hisoblanadi.

Bahouddin Naqshband majmuasi - shayx Bahouddin Naqshband mozori yonidagi hazira — ansambl (Buxoro viloyati, 16-a.). Mozor Abdulazizxon buyrug‘i bilan

tartibga solinib, hazira barpo etilgan va 1544 — 45 y.larda majmuaning eng katta binosi — xonaqoh qurilgan. B. m. daxmalar (Daxmai shohon va Baho-uddin daxmasi), maqbara, 2 masjid, saqoxona, hovuz, quduq, minora, Madrasa va Abdulazizxon xonaqohidan ibo-rat. Majmua kichik gumbazli chortoq darvozaxonadan boshlanadi. Darvozadan o‘tgach, o‘ngda kichkina masjid, chap tomonda ziyoratchilar uchun turli binolar bo‘lganligi ma’lum. Yo‘l davomida chapda xonlar mozori — Daxmai shohon joylashgan. Daxmai shohon to‘g‘ri to‘rtburchak tarhli, bal. 2.5 m, usti kulrang marmar bilan qoplangan. Unda marmar o‘ymakorligi, xattotlik sai’atining ajoyib namunalari mavjud. Marmarlarga tokchalar, ustunchalar, sharafalar, sarv surati va b. bezaklar o‘yilgan; naqshlar ba’zida yozuvlar bilan aralash uchraydi. daxmasi bilan hovuz oralig‘ida quduq, uning yonidagi chiroyli shiypondan qadimda ziyoratchilarga turli shaklli idishlarda "muqaddas" suv ulashilgan.





Bayonlashtirdi :

M.Avliyoqulova.

Buxoro davlat universiteti
Tabiiy fanlar va agrobiotexnologiya fakulteti 1-kurs talabalari va
magistr Zaribboyev.M

“Zoomuzey” muzeyiga tashrifi

Bayonnomasi

Buxoro tuman.

11.03.2025-yil

Kotib:A.A.Nasriyev

Qatnashdi: 14 nafar

KUN TARTIBI :

Talabalarning bo`sh vaqtini mazmunli o`tkazish maqsadida fakultetda joylashgan
“Zoomuzey”ga tashriflarni amalga oshirish

Eshitildi:

Joriy yilning 11- mart kuni Tabiiy fanlar va agrobiotexnologiya fakulteti tyutori
A.A.Nasriyev 2-1 QXMS 24 guruh talabalari va magistrilar ishtirokida Buxoro davlat
universiteti Tabiiy fanlar va agrobiotexnologiya fakultetida tashkil qilingan
"Zoomuzey" hayvonot muzeyiga tashrif buyurishdi. Toshkent shahar hokimligining
xabar berishicha, 18-may kuni barcha muzeylarda «Ochiq eshiklar kuni» o`tkaziladi,

o'nlab yangi ko'rgazmalar ochiladi. Bu kunda barcha muzeylar tashrif buyuruvchilar uchun bepul xizmat ko'rsatadi. Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlariga ko'ra, 2021 yil 1 yanvar holatiga O'zbekistondagi muzeylar soni 105 tani tashkil etgan. Buxoro davlat universiteti Agronomiya va biotexnologiya fakulteti Biologiya kafedrasida qoshidagi Zoomuzey tashkil qilingan. Buxoro davlat pedagogika instituti 1930 yilda tashkil qilingan yildan boshlab, muzey materiallari yig'ila boshlangan. Zoomuzeyni tashkil qilishda professorlar M.A. Abdullaev, B.S. Baqoevlarning xizmatlari katta. 1991 yilda F.R. Xolboev zoomuzey ilmiy xodimi lavozimida ishlagan davrida zoomuzey materiallarini qayta tartibga keltirishda jonbozlik ko'rsatdi. Talabalarga zoologiya, bioxilma-xillik, zoogeografiya fanlarini o'qitishda keng miqyosda foydalanib kelinmoqda. 2001 yilda R.R. Raxmonov zoomuzey ilmiy xodimi lavozimida ishlagan davrda "fauna" ishlab chiqarish laboratoriyasini tashkil etilgan





Bayonlashtirdi

A.A.Nasriyev



**Buxoro davlat universiteti Tabiiy fanlar va agrobiotexnologiya fakulteti
tyutorlari va talabalar "Nasriddin Afandi festivali" doirasida BuxDU
uchun ajratilgan maydonda amaliy va badiiy san'at ko'rgazma yarmarkasi
hamda hajviy rasmlar ko'rik tanlovida talabalarning ishtirok etganligi
to'g'risidagi
Bayonnomasi**

Buxoro tuman

01.04.2025-yil

Qatnashdilar :

Buxoro davlat universiteti Tabiiy fanlar va agrobiotexnologiya fakulteti tyutorlari O.Djumayeva, D.Hafizova, Yoshlar bilan ishlash bo'yicha dekan o'rinbosari I.R.Barakayev, fakultet talabalari

Eshitildi:

Joriy yilning 1-aprel kuni Buxoro davlat universiteti Tabiiy fanlar va agrobiotexnologiya fakulteti Yoshlar bilan ishlash bo'yicha dekan o'rinbosari I.R.Barakayev, tyutorlar va talabalar "Nasriddin Afandi festivalida faol ishtirok etidilar. Buxoroda 1 aprel – kulgi va mutoyiba kuni munosabati bilan «Nasriddin afandi» festivali o'tkazildi. Mazkur quvnoq festival xalq og'zaki ijodi qahramonlari sanalgan Nasriddin Afandi, Mulla Mushfiqiy, Yortiquloq kabi donishmandlarning zukkolik, hozirjavoblik fazilatlarini targ'ib qilish, sayyohlarga Buxoroning turizm yo'nalishidagi imkoniyatlarini namoyish etish orqali xalqlar o'rtasidagi madaniy-ma'rifiy aloqalarni mustahkamlashga qaratilgan. Afandi festivali karvoni yurishi (marshi)da qatnashgan minglab aholi va ishtirokchilar «Ark» qo'rg'onidan «Labi Hovuz» majmuasiga bezatilgan manzilni bosib o'tishdi.

Festival tomoshalarining asosiy qismi Nodir Devonbegi madrasasi old maydoni hamda Xo‘ja Nasriddin haykali o‘rnatilgan bog‘ o‘rtasida o‘tkazildi. Festival Buxoro shahar hokimi Qurbon Tursunov hamda viloyat hokimi o‘rinbosari Botir Shahriyorovlarning tabrik so‘zi bilan ochildi. Bunda so‘z san‘ati ustalari, askiyachilar va yosh havaskorlar ijrosidagi ichakuzdi hangomalar, qo‘shiq, teatrlashtirilgan tomoshalar xalqimizning betakror kulgu san‘ati imkoniyatlari namoyishiga aylandi. «Nasriddin Afandi yoki Xo‘ja Nasriddin XIII asrdan beri O‘rta Osiyo, Yaqin Sharq, Xitoy, Kavkazorti va Bolqonda tarqalgan latifalar, rivoyatlar va ertaklardagi hajviy xarakterdir. Nasriddin Afandi haqiqatan ham mavjud bo‘lgan yoki yo‘qligi haqida hech qanday ma‘lumot yo‘q, ammo tarixchilar va yilnomachilar uning kelib chiqishining bir nechta manbalarini keltiradilar. Ulardan biriga ko‘ra, Afandining vatani Buxoro, boshqasiga ko‘ra, u umuman Xitoyda tug‘ilgan. Ammo bularning barchasi ko‘pgina mamlakatlarda uning sharafiga yodgorlik o‘rnatilishiga xalaqit bermaydi. Shunga qaramasdan, Buxoro shahrining markaziy maydonidagi Labi-Hovuz ansamblida 1979 yilda o‘rnatilgan Xo‘ja Nasriddinning bronza haykali tengsiz va mashhur. Birgina haykalning o‘zi har kuni, har daqiqada Buxoroning qadim atmosferasiga quvonch va kulgu bag‘ishlab turadi», - dedi viloyat Madaniyat boshqarmasi boshlig‘i Sherzod Tilavov.

Yurt tinchligi va osoyishtaligi shu yerda yashayotgan xalqning sof niyati hamda o‘zaro hamjihatligiga ko‘p jihatdan bog‘liq. Yurtimizda yashayotgan turli millat va elatlarning farovon hayotini ta‘minlashda davlatimiz tomonidan qabul qilinayotgan hujjatlar ham muhim ahamiyat kasb etadi. Xalqaro minbarlarda baralla yangragan “ma‘rifat va diniy bag‘rikenglik”ka chaqiriq butun dunyoda e‘tirof etildi. Bu tashabbus Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tomonidan 2017-yil sentabrda BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida ilgari surilgan edi. Mamlakatimizda milliy liboslar targ‘ibotini kuchaytirish, yosh avlod ongiga millat ruhiyatini singdirish, ular hayotiga o‘zbekona mentalitet me‘yorlarini olib kirish hamda milliy liboslarga mehr



uygʻotish maqsadida turli xil milliy liboslar festivali va shu koʻrinishdagi tadbirlarning tashkil etilayotganligi ham bejiz emas.





Bayonlashtiradi:

tyutor:D.Hafizova

**Tabiiy fanlar va agrobiotexnologiya fakulteti tyutori M.Avliyoqulovanning
biriktirilgan guruhlardagi talabalar bilan teatrga tashrif**

BAYONNOMASI

Buxoro shahri

03.03.2025

QATNASHDILAR: BuxDU Tabiiy fanlar va agrobiotexnologiya fakulteti tyutorlari va talabalari va magistr Zaribboyev.M

ESHITILDI: 3-mart kuni Talaba-yoshlar uchun Buxoro viloyat musiqali drama teatrida Veoril Savin asari asosida "Keksa xonim va o'g'ri" nomli spektakl namoyish etildi. Spektaklni Tabiiy fanlar va agrobiotexnologiya fakulteti tyutorlari, talaba-yoshlari katta qiziqish bilan tomosha qildilar.

Teatr (yunoncha *θέατρον* – „tomoshagoh“) cheklangan joyda bir yoki bir necha aktyorlar ijro etadigan sahna ko‘rinishi orqali tomoshabinga fikr uzatuvchi san’at janridir. Ba’zan teatr tomoshalari o‘tkaziladigan binolarni ham *teatr* deb atashadi (aslida ularni *teatr binosi* deb atash o‘rinli).

Teatr (yun. theatron – tomoshagoh) – san’at turi; uning o‘ziga xos ifoda vositasi – aktyorning omma oldidagi o‘yini jarayonida yuzaga keladigan sahnaviy voqeadir. Teatr san’atida ham boshqa san’atlarda bo‘lganidek, xalq hayoti, tarixi, dunyoqarashi aks etib, jamiyat taraqqiyoti, ma’naviyati, madaniyati bilan bog‘liq holda o‘zgarib, takomillashib boradi. Teatr asosida og‘zaki yoki yozma dramaturgiya yotadi.

Teatr sintez san’ati bo‘lib, jamiyat hayotida, tomoshabinlarning ma’naviy va estetik tarbiyasida muhim o‘rin tutadi. Unda dramaturgiya, musiqa, tasviriy san’at, raqs, me’morlik ajralmas birlikni tashkil etadi. Teatrning muhim vositalaridan biri sahna nutqidir. Aktyor qahramonning pyesadagi so‘zlarini o‘zlashtirib olar ekan, qahramon qiyofasida, holatlarda turib uning nutqiy tavsifini yaratadi, boshqa personajlar bilan muloqotga kirishadi. Sahna nutqi xarakterlarning ochilishida, asar mazmuni, konfliktining yoritilishida muhim o‘rin tutadi (qarang Sahna nutqi). Sahna asarlarining yaratilishida teatr rassomligi (ssenografiya)ning hissasi katta. Rassom asar mazmuni va rejissyor yechimidan kelib chiqib, dekoratsiya yaratadi. (qarang Teatr dekoratsiyasi san’ati). Teatrda musiqaning ham o‘rni katta, tomosha turi va janriga bog‘liq holda u turli vazifani bajaradi: dramatik spektakllarda yordamchi vosita bo‘lsa, operetta, musiqali dramada so‘z bilan barobar huquqqa ega, opera va baletda esa hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

Bayonnomani asoslovchi foto-sur'atlar



Bayonlashtirdi. Tabiiy fanlar va agrobiotexnologiya fakulteti tyutori M.Avliyoqulova





Sitorayi moxi xossa ziyoratgohi 18.09.2024yil



**Berdaq nomidagi qoraqolpoq mamlakatlik akademiyalik muzikalni teatri
15.06.2025 yil**



Savetskiy nomidagi qoraqolpoq davlat muziye 28.12.2024yil





Samarqand registon maydoni 28.05.2025yil



Buxoro ARK qo`rg`oni Turkiyalik mehmonlar bilan 26.02.205yil



Xiva ichan qala 19.10.2024yil



Xiva tarixiy muzeyi 30.11.2024yil